



AYRIM XORIJIY DAVLATLARDA KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH VA UNDA “KOMPLAENS-NAZORAT” TIZIMINING O‘RNI

Raximjonova Nargizaxon Raximjonovna

Toshkent davlat yuridik universiteti “Jinoyat huquqi, kriminologiya va korrupsiyaga qarshi kurashish kafedrasida o‘qituvchisi”
<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.10405694>

ARTICLE INFO

Received: 12th December 2023

Accepted: 18th December 2023

Online: 19th December 2023

KEY WORDS

ABSTRACT

Korrupsiyaga qarshi kurashishga oid normalar asosida “komplaensnazorat” tizimining huquqiy asoslari shakllanib, bugungi kunda boshqa normativ aktlar qabulining davom ettirilishida dasturil amal sifatida xizmat qilmoqda. Ayrim rivojlangan davlatlar korrupsiyaga qarshi kurashishga yuz yillar oldin bel bog‘lagan edi. Buyuk Britaniyada 1889 yilda “Davlat idoralarida poraxo‘rlikka qarshi kurashish to‘g‘risida” va 1906 yil 4 avgustda “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi qonuni qabul qilingan. AQShda 1883 yilda Fuqarolik davlat xizmati Pendlton qonuni qabul qilingan. 1906 yil AQShda ilk bor xususiy sektorda korrupsiyaga qarshi kurashishga ixtisoslashgan ichki xavfsizlik (komplaens xizmati) tashkil etiladi. 1970 yilda esa “Uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurashish to‘g‘risida”gi (RIKO) qonuni qabul qilinadi. 1977 yilda ushbu davlatda “Xorijda korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risidagi akt” (FCPA-Foreign Corrupt Practices Act) qabul qilinadi. Qonunda korporatsiyalarda komplaens xizmati tashkil etilishi shart etib belgilangan. 2002 yil 30 iyulda Sarbeynz-Oksli (Sarbanes-Oxley Act, SOX) Qonuni qabul qilinadi va unga ko‘ra, AQSh birjasida o‘z aktivlarini joylashtirgan barcha xorijiy kompaniyalar o‘zlarida korporativ boshqaruv tizimiga korrupsiyaga qarshi komplaens xizmatlarini tashkil etishlari majbur etib belgilanadi.¹ Singapurda 1960 yilda “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi qonun qabul qilinadi. XX asr o‘rtalarida Gongkong korrupsiya “botqog‘iga botib qolgan” (davlat hokimiyati organlari 94% korrupsiyalashgan) edi. 1Dunyo davlatlari korrupsiyaga qarshi qanday kurashmoqdalar? O‘zbekiston qaysi yo‘lda? Boboqul Toshev, Yuristlar malakasini oshirish markazi kafedra mudiri, yuridik fanlar doktori. 1974 yili M.Myurrey mustaqil hech qaysi davlat organiga bo‘ysunmaydigan Korrupsiyaga qarshi kurash bo‘yicha komissiyani tuzdi. Shuningdek, mahalliy ommaviy axborot vositalari tomonidan erkin tarzda korrupsiya bilan bog‘liq har qanday yangiliklarni e‘lon qilish va jurnalistik surishtiruvlar olib borish faoliyati to‘liq ravishda ta‘minlandi. Rivojlangan davlatlarning korrupsiyaga qarshi kurashish bilan bog‘liq samarali faoliyati va tegishli qonun hujjatlari hamda vakolatli organlarining faoliyati o‘rganilishi natijasida Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan 2003 yil 31 oktyabrda “Korrupsiyaga qarshi konvensiya” qabul qilindi.



Mazkur hujjat muqaddima hamda 8 ta bob, 71 ta moddadan iborat. Konvensiyaning qabul qilinishi xalqaro hamjamiyat korrupsiyaning oldini olish va ildizini quritishga dadillik bilan kirishayotganligini yaqqol aks ettiradi. Mazkur konvensiya, korrupsiyaga chalingan shaxslar jamiyat ishonchini oqlamasalar, bundan keyin ularning kirdikorlariga hech kim chidab turmasligi haqida qat'iy ogohlantiradi. Konvensiya rivojlanishga ko'maklashishda hamda barchaning farovonligi uchun bizning dunyoni takomillashtirishga qaratilgan ishlarda halollik, huquq ustuvorligini hurmat qilish, hisobot yuritish va oshkoralik, oshkoralik kabi fazilatlar muhim ahamiyatga ega ekanligini tasdiqlaydi. 1 Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan 2003 yil 31 oktyabrda "Korrupsiyaga qarshi konvensiya" korrupsiyaga qarshi kurashishda huquqiy va me'yoriy tartiblarni mustahkamlash maqsadida barcha mamlakatlar tomonidan qo'llanilishi mumkin bo'lgan bir qator standartlar, choratadbirlar va me'yorlarni qamrab olgan. Hujjatda ham davlat, ham xususiy sektorda korrupsiyaning eng keng tarqalgan shakllari jinoyatchilik toifasiga kiritilishi uchun tegishli profilaktik va qonuniy ko'rishga da'vat etiladi.

Konvensiyada BTMga a'zo davlatlar korrupsiya yo'li bilan qo'lga kiritilgan mablag'lar qaysi mamlakatdan o'g'irlangan bo'lsa, o'sha yurtga qaytarishlarini talab qiladigan bir yangi muhim qoida mavjud. 2003 yili Iqtisodiy rivojlanish va hamkorlik tashkiloti tomonidan Sharqiy Yevropa va Markaziy Osiyo davlatlari uchun Korrupsiyaga qarshi Istanbul harakat dasturi qabul qilingan. O'zbekiston Respublikasi unga 2010 yilda qo'shilgan. 2016 yilga kelib 3-monitoring missiyasi vaziyatni o'rgangan va tavsiyalar bergan edi. Yuqoridagi tahliliy materiallardan shunday fikrlar shakllanadi: korrupsiyaga qarshi kurashish xalqaro darajada birgina normativ hujjatlar bilan emas, balki ko'p yillar davomida shakllangan tajriba asosida xalqaro munosabatlardagi aloqalarni tartibga solib keladi. Masalaning yana bir tomoni: ko'plab rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlarning mahalliy hujjatlarida ham xalqaro hujjatlarning ustuvorligi tan olingan ekan, bu ham xalqaro me'yoriy aktlarning mohiyati va tushunchalarini anglab yetish zamonaviy tendensiyalarda muhimlik kasb etadi. Bugungi kundagi xalqaro tajribaga ko'ra, "komplaens-nazorat" tizimini joriy etishning keng tarqalgan ikkita modeli qo'llanilmoqda: Birinchisi, kompaniya va tashkilot faoliyati faqatgina o'rnatilgan mavjud qonun va qoidalarga muvofiq tashkil etishga qaratiladi va bunda komplaens xizmatini joriy etilishi minimal qoidalar bilan cheklanadi; Ikkinchisi, komplaens xizmatining tashkil etilishi davlat tomonidan tartibga solingan va korrupsiya xavflarni baholashda xalqaro tashkilotlarning (Bazel bank qo'mitasining tavsiyalari, Wolfsberg guruxi (Wolfsberg Group) tavsiyalariga asoslanadi va bu modelda komplaens xizmatning maqomi, vazifasi, faoliyat doirasi ko'proq xalqaro standart va tavsiyalarga asoslanadi¹. Kompaniya va tashkilotlar tomonidan komplaens xizmatini joriy etish 4 bosqichda amalga oshirilmoqda: 1-bosqich: korrupsiyaga qarshi kurashishda komplaens nazorat xizmatini joriy holatini tahlil qilish; 2-bosqich: korrupsiyaga qarshi chora-tadbir va nazorat mexanizmlarini ishlab chiqish yoki takomillashtirish; 3-bosqich: korrupsiyaga qarshi kurashish "komplaens nazorat" xizmatini joriy etish; 4-bosqich: joriy qilingan korrupsiyaga qarshi kurashish "komplaens nazorat" tartib-qoidalari samaradorligini baholash kabi jarayonlarni o'z ichiga olmoqda.² Xalqaro hujjatlarda komplaens nazorat tizimini joriy etishga oid standart va tavsiyalar berilgan: BMTning "Korrupsiyaga qarshi konvensiya"ning 12-modda "Xususiy sektor", 21-modda "Xususiy sektorda pora evaziga og'dirish", 22-modda "Xususiy sektorda mulkning talon-toroj qilinishi", 39-modda "Milliy organlar va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlik" kabi moddalarda korrupsiya xavflarin



aniqlash, ularni oldini olishning qator profilaktik choralari amalga oshirish bo'yicha tavsiyalar keltirilgan. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (IHTT) tomonidan qabul qilingan xalqaro standartlar va hujjatlar alohida ahamiyat kasb etadi. 1997 yil 21 noyabrda qabul qilingan "Xalqaro tijorat bitimlarida xorijiy davlat amaldorlarining poraxo'rligiga qarshi kurash to'g'risida"gi Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining konvensiyasi hisoblanadi¹.

. Bu o'rinda aynan komplaens xizmatiga oid eng yaxshi amaliyot va tajribalarni o'zida mujassam etgan "Ichki nazorat, etika va komplaens bo'yicha rahbariy Yo'riqnoma" ni keltirish mumkindir. Bazel qo'mitasining 2005 yil aprelida qabul qilingan (yangi tahrirda) bank nazorati bo'yicha "Banklardagi komplaens va komplaens funktsiya to'g'risida"gi hujjati (The Basel Committee on Banking Supervision) hisoblanadi.¹ Mazkur tajriba samaradorligi bilan ajralib turadi va asosan yirik iqtisodiy salohiyatga ega AQSh, Buyuk Britaniya, Germaniya, Xitoy kabi davlatlar amaliyotiga to'g'ri keladi. Shuningdek, aksariyat xorijiy davlatlarda komplaens nazorat tizimi alohida qonun hujjati tartibga solingani ahamiyatga molikdir. Misol uchun AQShda "Xorijda korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi Akt" (Foreign Corrupt Practices Act, 1977), "Sarbeynz-Oksli Akti" (Sarbanes-Oxley Act, 2002), "Dodd-Frank Akti" (Dodd -Frank Act, 2010) nomli qonun hujjatlarida AQSh bozorida ishtirok etuvchi har qanday korporatsiya va kompaniyalarning o'z tarkibida komplaens nazorat tizimini tashkil etishni majburiy qoida sifatida belgiladi.² Bu o'rinda ushbu sohani tartibga solishga qaratilgan Sloveniya qonunchiligi o'ziga xosligi bilan ham ajralib turadi. Xususan, 2014 yil 26 aprelida qabul qilingan "Sloveniya davlat xoldinggi akti to'g'risida"gi (Slovenian sovereign holding Act, 2014) Qonunida komplaens nazorat tizimining maqomi va vakolatlari belgilangan. Qonunning o'ziga xosligi shundaki, unda komplaens xizmatida kadrlar masalasiga (compliance officer) to'xtalib o'tilgan hamda kompaniya ichidagi korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar haqida xabardor etishga (whistleblowing policy) aniq qoida va tartibni keltirib o'tadi.¹ Yuqoridagilardan xulosa qilish mumkinki, bugun nafaqat bir mamlakatda, balki xalqaro maydonda ham ko'p yillar davomida korrupsiyaga qarshi kurashish va unda samarali mexanizm sifatida qaralgan "komplaens nazorat"ning ko'plab jihatlari yillar davomida shakllanib ulgurgan. Bu esa O'zbekistonda joriy etilgan va uning boshqa elementlari ham olib kirilayotgan "komplaens-nazorat"ning rasmiylashtirish jarayonida xalqaro huquqning yuqorida keltirilgan qoidalarni ham inobatga olish foydali bo'lishi shubhasiz. Ushbu bo'limda xalqaro huquqiy munosabatlarda amalda bo'lib turgan hujjatlar haqida to'xtalib o'tgan bo'lsak, keyingi bo'limda dunyoning rivojlangan mamlakatlarida alohida mavjud tizim va uning amaliy tahlili haqida to'xtalib o'tamiz². Xorijiy davlatlardagi korrupsiyaga qarshi kurashishning o'ziga xos siyosati va unda "komplaens-nazorat" tizimining o'rni Bugungi rivojlangan tendensiya xalqaro maydon bilan hisoblashish va uning amaliy tavsiyalarni inobatga olishni taqozo etadi. Ayniqsa zamonaviy modellarni ko'p yillardan buyon o'z tizimlarida qo'llab kelayotgan davlatlar uning ijobiy va salbiy tomonlari xususida yetarli tajribaga egaligini anglatadi. Bu tajribalarni o'rganish, thlil qilish orqali mahalliy normativ-huquqiy siyosatda uni joriy etish jarayonlarida katta ahamiyat kasb etadi.

¹ Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplaens-nazorat tizimini joriy etish: muammolar va rivojlanish istiqbollari (xalqaro onlayn ilmiyamaliy seminari materiallari to'plami). T.: TDYuU, 2020, - B. 661. Korrupsiyaga qarshi kurashishda komplaens nazorat tizimining o'rni va ahamiyati. X.R.Ochilov.17b

² Gulchekhra Tulaganova, Nargizakhon Rakhimjonova, & Saidmurod Nasrullaev. (2021). LIABILITY FOR MONEY LAUNDERING AND CLASSIFYING THESE TYPE OF CRIMES. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 9(10), 676–684. Retrieved from <https://giirj.com/index.php/giirj/article/view/420>



Korrupsiyaga qarshi kurashish masalasi transnatsional xarakter kasb etayotganligi sabab unga qarshi kurashuvda tartibga soluvchi normalar ham o'ziga xos tarzda 3 qismga ajratishimiz mumkin: (aniqroq aytsak, 3 element): –

Xalqaro aktlar; Assosatsiya va kompaniyalarning kodeks, ichki hujjatlari; (masalan, ichki o'dob-axloq qoidalari) Uning qabul qilgan xalqaro maydondandagi tashkilotlar va hukumatlar haqida ham ushbu bobda to'xtalib o'tishni maqsad qildik. ISO 37001 standarti Malayziyada Bosh vazir Tun Dr Mahathir Mohamad boshchiligidagi hukumat tomonidan joriy qilingan. Yangi tizim ham davlat sektorida, ham xususiy sektorda ijobiy natija bergan. Bu haqda Malayziyaning korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha sobiq rahbari "Xalqning, hukumatning korrupsiyaga qarshi jiddiy choralar ko'rishi 2016 yildagi 59,8 foizdan 70,8 foizgacha ko'tarildi" degan edi. Shuningdek, u Malayziya bir qator muhim xalqaro tadqiqotlar va indekslar bo'yicha o'z ko'rsatkichlarining yaxshilanishini ko'rsatganini ta'kidlagan (New Straits Times, 2019). Birgina Malayziya emas. Peru, Singapur va Xitoyda (Shenzhen Standartlar va Texnologiyalar Instituti) milliy standart organlari ISO 37001 standartini qabul qilgan. Italiyada ISO 37001ning akkreditatsiya sxemasi Accredia tomonidan rivojlantirilgan; Buyuk Britaniyada esa Birlashgan Qirollikning Akkreditatsiya Xizmati (Accreditation Service) akkreditatsiya sxemasini ishlab chiqish uchun ISO 37001 boshlang'ich dasturini amalga oshirdi. BAAda Xalqaro Akkreditatsiya Markazi (Accreditation Centre) ISO 37001 akkreditatsiya sxemasini ishlab chiqish bilan shug'ullanmoqda. Shuningdek, Microsoft va Walmart ISO 37001 sertifikatiga ega bo'lish niyatida ekanligini e'lon qilgan. Bugungi kunda dunyoning 170 dan ortiq mamlakatlarida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida ixtisoslashgan tashkilotlar faoliyat yuritmoqda. Korrupsiyaga qarshi birinchi ixtisoslashgan organlardan biri 1952 yilda tashkil etilgan Singapur Korrupsiya holatlari tergov byurosi bo'lib, keyinchalik bunday organlar Hindistonda Ogohlik bo'yicha Markaziy qo'mitasi (1964), Ozarbayjonda Korrupsiyaga qarshi kurashish komissiyasi (2004), Gruziyada Korrupsiyaga qarshi Kengash (2008), Koreya Respublikasida Korrupsiyaga qarshi kurashish va fuqarolik huquqlari bo'yicha mustaqil komissiya (2008) shaklida tashkil etilgan.1 Yuqoridagilardan kelib chiqib, qo'shimcha tarzda ayrim davlatlarning korrupsiyaga qarshi kurashishdagi "komplaens-nazorat" tizimini tahlil qilamiz: Braziliya2 Braziliya davlatidagi vaziyatga ko'ra, yirik kompaniyalarda korrupsiyaga qarshi "komplaens-nazorat" tizimi joriy etila boshlangan. 2013 yil 1 avgustda qabul qilingan Braziliyadagi qonunga ko'ra, 2014 yil 30 yanvardan boshlab davlatdagi kompaniyalarda korrupsiyaga qarshi tizim sifatida "komplaens-nazorat" tizimini keng qo'llanila boshlandi. Ushbu qonunning qabul qilinishi yuridik shaxslarga davlatning ichki va tashqi hududida uning siyosatiga qarshi qaratiladigan korrupsion harkatlarga javobgarlikni belgilaydi. Bu qonun Braziliy hududida ro'yhatdan o'tgan har qanday tashkilotlarga ham amal qiladi. Buni 2021 yil 3 fevralda O'zbekiston Respublikasida qabul qilingan Prezident farmonining 20-bandida korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining "E-Antikorrupsiya" loyihasini amalga oshirish to'g'risidagi taklifi ma'qullangan. Ya'ni davlat organlari va tashkilotlari tomonidan kiritilgan korrupsiyaviy omillarni bartaraf etish bo'yicha takliflarni ko'rib chiqish, soha va tarmoqlar kesimida chuqur tahlillar va jamoatchilik so'rovlarini o'tkazish natijasida "Korrupsiyaga moyil bo'lgan munosabatlar elektron reestri"ni shakllantirish hamda "Korrupsiyaga moyil bo'lgan munosabatlar elektron reestri"ga muvofiq har bir korrupsiyaviy omilni birinchi navbatda raqamlashtirish (elektron navbat, auksion va boshqa zamonaviy usullar), ochiqlikni ta'minlash,



jamoatchilik nazorati kabi vositalar orqali bartaraf etish bo'yicha takliflarni ekspertlar va fuqarolik jamiyati institutlari vakillari orasida keng muhokamadan o'tkazgan holda ishlab chiqish; amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning natijadorligini va korrupsiyaviy omillarni bartaraf etishga ta'sirini jamoatchilik fikrini o'rgangan holda baholash va e'lon qilish kabi takliflar qabul qilinib, vazifa sifatida belgilangan. Boshqa davlatlardagi tajribalarni ko'rib o'tsak, masalan, Hindiston va Xitoyda¹ mavjud qonunchilik talablariga ko'ra, tashkilotlar korrupsiyaga qarshi "komplaens-nazorat" tizimini joriy etishlari majburiy emas. Ushbu davlatlardagi mavjud tashkilotlar o'zlarining faoliyati davomida o'z istaklari bilan ish etikasiga oid kodekslarga qabul qiladilar. Xitoyda 2012 yili ish etikasiga oid qoidalar to'plami qabul qilinadi. Bu to'plam 2013 yili yangi tahrirda qabul qilinib, unda korrupsiyaga qarshi "komplaens-nazorat" tizimining alternativ modellarini tashkilotlar uchun taklif etadi. Janubiy Afrika Respublikasi JARda 2004 yil 27 aprelda qabul qilingan "Korrupsion holatlardan ogohlantirish va unga qarshi kurashish to'g'risida"gi qonun bilan tartibga solinadi. Qonun korrupsion holat va munosabatlarning keng qamrovdagi Qonunning 34-moddasiga ko'ra, kompaniya menejerlari va tashkilot rahbarlari oldiga korrupsion holatlar aniqlangan holatlarda zudlik bilan politsiyaga xabar berish majburiyati belgilab beriladi. Bu majburiyatni bajarish barobarida tashkilot va kompaniyalar zimmasiga korrupsiyaga qarshi kurashishda "komplaens-nazorat" tizimini joriy etishni belgilaydi. E'tiborli tomoni, mavjud davlatda mavjud tender unosabatlarni ham "Korrupsion holatlardan ogohlantirish va unga qarshi kurashish to'g'risida"gi qonun tartibga solib, unga ko'ra, tender talablarini buzgan tashkilotlarni yagona reestri yuritiladi. AQSh¹ Amerikada komplaens institutining rivojlanishi XIX asr oxiri va XX asr boshlariga borib taqaladi. XIX asrning ikkinchi yarmida jamiyatda shunday iqtisodiy inqiroz va yo'qotishlar bo'ldiki, u jamiyatni sarosimaga solib qo'ydi. Masalan, Jay Cooke raise money for the Union army – obligatsiyalarni sotishdagi muammolar bilan bog'liq holatlar. Shu kabi muammolar sabab federal qonunlarni isloh qilish va yangi aktlarni qabul qilinadi. Masalan: – Mail Fraud Statute: amerikaliklarni firibgarlik va zararlardan himoya qiluvchi ilk qonun. – Commerce Act of 1887: temir yo'l bilan bog'liq munosabatlarni tartibga soluvchi ilk federal qonun. – Sherman Antitrust Act of 1890: monopoliyani tartibga solishga qaratilgan qonun. Yuqoridagi qonunlarda korrupsiyaga qarshi "komplaens-nazorat" tizimini nazarda tutuvchi qonunlar amalga kiritildi³. XX asrning 80 yillaridan boshlab boshqaruv xodimlariga alohida talablar qo'yila boshlandi, bu bugungi kunda komplaens-mutaxassis nomi bilan ataladigan hodimlarning paydo bo'lishi bilan bog'liq. kompaniyalaridagi hisobot hujjatlarni va moliyaviy raqamlarni soxtalashtirish bog'liq holatlar esa yana yangi qonunning qabul qilinishi va vaziyatni nazorat qilishda komplaens tizimlarini joriy etish majburiyatlarini yuklab bordi. Rossiya Federatsiyasi Amerikadan farqli tarzda Rossiyada komplaens modellarining paydo bo'lishi va rivojlanishi biroz qisqa va formaga solish xarakterida ekanligi bilan ajralib turadi. AQShda "komplaens-nazorat" tizimini dastlab, xususi sektoridagi yurik kompaniyalar faoliyatini tartibga solish orqali boshlangan bo'lsa, Rossiya Federatsiyasida esa u davlat idoralarning tarkibida bu tizimni joriy etish bilan xarakterlanadi. RSFRS davrida 1918, 1921 yillarda korrupsiyaga oid Dekretlar qabul qilingan bo'lsa, mustaqil Rossiyada bu mazmundagi qonun 1992 yilda qabul qilingan bo'lib, ayni

³ Gulchekhra Tulaganova, Nargizakhon Rakhimjonova, & Saidmurod Nasrullaev. (2021). LIABILITY FOR MONEY LAUNDERING AND CLASSIFYING THESE TYPE OF CRIMES. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 9(10), 676–684. Retrieved from <https://giirj.com/index.php/giirj/article/view/420>



kundagi munosabat esa 2008 yil qabul qilingan “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi federal qonun bilan tirtibga solinadi. Biz uchun qiziq joyi ushbu qonunning 13-moddasi 3-bandi bo‘lib, unda korrupsion holatlar bo‘yicha xabar berish tizimini boshqaruvchi tashkilotlar o‘z bo‘yniga olishlari belgilanadi. (Xususiy va davlat sektoriga birdek). Aytish mumkinki, Rossiyada “komplains-nazorat” tizimi asosan bank sohasida yaxshi rivojlanganligini uchratishimiz mumkin. Shvesiya. Shvesiya qirolligida olib borilayotgan korrupsiyaga qarshi kurashish tizimli strategiyasi davlat tuzulmalarida korrupsiya darajasi yuqori bo‘lgan mamlakatlar doimiy e‘tiborida. Chunki, **Shvesiya** har yili “Transparency International” xalqaro nohukumat tashkiloti tomonidan e‘lon qilinadigan “Korrupsiyani qabul qilish indeksi” reytingida odatda 3-4 o‘rinni egalaydi. Shvesiya korrupsiyani butunlay yo‘q qilmagan bo‘lsa ham, bunga qodir bo‘lgan mamlakat deb hisoblanadi. Shvesiyaning iqtisodiy muvaffaqiyatga erishish shartlaridan biri davlat boshqaruvi sohasida poraxo‘rlikka qarshi maqsadli kurashishi. Mamlakatda pora olish va pora berish jinoyatlari o‘ta og‘ir jinoyatlar toifasiga kiradi. Shuningdek, Shvesiya parlamenti va hukumati mansabdor shaxslari uchun yuqori ahloq me‘yorlari o‘rnatilgan bo‘lib, halollik davlat organlari orasida obro‘li me‘yorga aylangan. Mansabdor shaxslarning ish haqi dastlab bir necha baravar oshirilgan. Shvesiyada cherkov va jamoatchilik fikri korrupsiyaga qarshi kurashishda muhim o‘rin tutadi. Agar qisqa vaqt ichida tadbirkor juda katta daromad olishga muvaffaq bo‘lsa yoki mansabdor shaxsning xarajatlari daromadidan ancha yuqori bo‘lsa jamoatchilik bunday shaxslardan shubhalanadi. Jamoatchilik fikri, birinchi navbatda, bunday amaldorni iste‘foga chiqishga majbur qiladi va unga hech qachon davlat xizmatida yoki xususiy biznesda ishlashiga yo‘l qo‘ymaydi. Jamoatchilik fikri korrupsiya, umuman nohaqlik, ham xususiy biznesda, ham davlat boshqaruvida juda kam uchraydigan hodisaga aylandi. Hech qanday qonunchilikni tartibga solish choralari yoki hattoki jinoiy jazolar bunday natijaga erisha olmagan bo‘lar edi. Italiya. Yevropa davlatlari orasida Italiyada korrupsiyaga qarshi kurashishning o‘ziga xos tizimiga ega. Ushbu davlatda korrupsiyaga qarshi kurashishda jamoat tashkilotlari va davlat muassasalari o‘zaro hamkorlikda faoliyat olib borishi yo‘lga qo‘yilgan. Parlament tomonidan uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurashish bo‘yicha maxsus Kengash hamda jinoyatchilikka qarshi kurashish bo‘yicha okrug boshqarmalari tashkil etilgan. O‘tgan asrning 90-yillarida **Italiya** huquqni muhofaza qiluvchi organlari tomonidan korrupsiyaga qarshi «Toza qo‘llar» deb nomlangan maxsus operatsiya o‘tkaziladi. Bu operatsiya uyushgan jinoyatchilikning huquqni muhofaza qiluvchi organlar va siyosatdagi ta‘siriga chek qo‘yishga qaratilgan edi. Saylov kompaniyalarini noqonuniy moliyalashtirish va siyosatchilarni sotib olish kabi jinoiy harakatlarni aniqlash ham ushbu operatsiyaning maqsadlaridan biri hisoblangan. Natijada 1.456 nafar yirik sarmoyador, mansabdor shaxslar, siyosiy partiya a‘zolarini qamoqqa olish bo‘yicha sanksiyalar imzolangan bo‘lsa, 3.026 nafar tadbirkor, mansabdor shaxslar, siyosatchilar tergov jarayonlariga jalb etilgan. Amaldagi parlament a‘zolarining 251 nafari, to‘rt nafar sobiq bosh vazir ham tergovga jalb etilgan. Korrupsiyaviy jinoyatlarda gumon qilinayotgan 10 nafar shaxs tergov jarayonida o‘z joniga qasd qilgan.

Xulosa sifida aytadigan bo‘lsak, “komplains-nazorat” jahon tajribasida ko‘p yillardan buyon davlatlarning ichki tuzilmasi, siyosiy yo‘nalishlariga qarab o‘zining xarakterli jihatlari shakllantirib, rivojlanib kelgan. Ayrim davlatlarda xususiy sektorda bu tizim boshlangan va rivojlangan bo‘lsa, ayrim davlatlarda bu islohot davlat idoralaridan boshlanganligini kuzatishimiz mumkin. Har qanday holatlarda ham bu O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga



qarshi kurashishda yangi yo‘nalishlarni tanlar ekanmiz, uning sifat jihatidan ham yaxshi tashkil etilishiga e‘tibor qaratish – natijaning kafolati bo‘lib xizmat qiladi.

References:

1. Конвенция Организации Объединенных Наций против коррупции (Принята резолюцией Генеральной Ассамблеи от 31 октября 2003 г.).
2. Буюк Британияда 1889 йилда “Давлат идораларида порахўрликка қарши курашиш тўғрисида” ва 1906 йил 4 августда “Коррупцияга қарши курашиш тўғрисида”ги қонунлари.
3. АҚШда 1883 йилда қабул қилинган Фуқаролик давлат хизмати тўғрисидаги Пендлтон қонуни.
4. АҚШнинг 1970 йилда “Уюшган жиноятчиликка қарши курашиш тўғрисида”ги (РИКО) қонуни.
5. АҚШнинг 1977 йилда “Хорижда коррупцияга қарши курашиш тўғрисидаги акт” (FCPA-Foreign Corrupt Practices Act).
6. АҚШнинг 2002 йил 30 июлда қабул қилинган Сарбейнз-Оксли (Sarbanes-Oxley Act, SOX) қонуни.
7. Базел банк қўмитасининг тавсиялари.
8. 1997 йил 21 ноябрда қабул қилинган “Халқаро тижорат битимларида хорижий давлат амалдорларининг порахўрлигига қарши кураш тўғрисида”ги Иқтисодий ҳамкорлик ва тараққиёт ташкилотининг конвенцияси.